

**JINOYAT ISHLARI BO'YICHA EKSPERTIZA TAYINLASH,
O'TKAZISH VA XULOSALARNI BAHOLASHNING PROTSESSUAL
JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Fatullayev Shodmonbek Madatovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi mustaqil
izlanuvchisi

ORCID: 0009-0000-5784-5723

E-mail: Shodmonbek080@gmail.com


Annotatsiya. Ushbu tezisda jinoyat ishlarida ekspertiza bilan bog'liq jinoyat-protsessual normalardagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish va ekspertiza faoliyatini takomillashtirish istiqbollari yoritilgan;

Kalit so'zlar. Sud-ekspertiza, ekspertiza, dalil, gumonlanuvchi, himoyachi, huquq, rad etish.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi" (2017–2021-yillar), shuningdek "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026-yillar" doirasida jinoyat-protsessual faoliyatni takomillashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, tergov jarayonida inson huquqlarini kafolatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Mazkur islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri — jinoyat ishlarida ekspertiza institutini takomillashtirish, uni zamonaviy ilmiy-texnik yondashuvlar asosida tashkil etish hamda ekspert xulosalarining ishonchliligini oshirishdan iboratdir. Chunki ekspertiza dalillar tizimida muhim o'rin tutadi va tergov,



prokuratura hamda sud organlari faoliyatining qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonun, shuningdek Prezidentning 2020-yil 3-dekabrdagi "Sud ekspertizasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4915-son qarori ushbu sohaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab berdi.

Bundan tashqari Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 3723-sonli Prezident qarori asosida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Konsepsiyada protsessual harakatlarni amalga oshirish tartiblarini, jumladan elektron shaklda sanksiyalar olish, dalillarni to'plash, ekspertizalar, sud muhokamasi o'tkazish va sud qarorlarini ijro etish orqali soddalashtirish masalasi belgilanib qo'yildi.

Mazkur hujjatlar asosida sud ekspertizasi organlari faoliyatini raqamlashtirish, kadrlar malakasini oshirish, mustaqil ekspertlik muassasalarini rivojlantirish hamda xalqaro tajribani joriy etish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Shunga qaramay, amaliyotda ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosalarini baholashda hali ham bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorlarning asosli emasligi, ekspertlarning malaka darajasidagi tafovutlar, xulosalarning baholanishida yagona mezonlarning yo'qligi bu sohada qonuniylik va adolat tamoyillariga to'liq erishishni qiyinlashtirmoqda.

Shu sababli, jinoyat ishlarida ekspertiza bilan bog'liq protsessual normalarni takomillashtirish, ularning qo'llanish samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos tizimni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

ASOSIY QISM

Sud-ekspertizasi instituti uzoq vaqtdan beri nafaqat alohida qoidalar va atamalarni unifikatsiya qilish, balki protsessual kodekslarda qonun bilan mustahkamlangan ularni qo'llash tushunchalari va tartiblarini modernizatsiya qilishni ham talab qilmoqda. Bu ehtiyoj jinoyat-protsessual qonunchilikning amaldagi holati, sud-ekspertiza faoliyati sohasidagi nazariy tadqiqotlar, shuningdek tergov va sud amaliyotining ekspert xulosalaridan mustaqil dalil sifatida foydalanish zarurati bilan bevosita bog'liqdir.

Biroq, sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni qonunchilikda tartibga solishga oid turli mualliflar tomonidan ilgari surilgan takliflar va o'zgartirishlar bir necha bor bildirilganiga qaramay, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha uzoq yillar davomida yetarli chora-tadbirlar ko'rilmagan. Bu holat sohada mavjud normativ-huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish, ekspertiza institutini zamon talablari asosida yangilash zarurligini ko'rsatadi.

Birinchidan, bu masala sud ekspertizasining asosiy kontseptsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Uning huquqiy ta'rifi O'zbekiston Respublikasining **“Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasi 5-bandida** mustahkamlangan:

“Sud ekspertizasi — fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan,

texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat."

E'tiborli tomoni shundaki, bu ta'rif faqat "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunda keltirilgan bo'lib, **Jinoyat-protsessual kodeksda** bunday aniq ta'rif mavjud emas. Xususan, Kodeksning 22-bobi to'liq ekspertizaga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda sud ekspertizasi tushunchasi izchil yoritilmagan. Natijada, jinoyat-protsessual amaliyotida "ekspertiza" va "sud ekspertizasi" atamalari ko'pincha chalkash qo'llanadi.

Bu esa o'z navbatida jinoyat ishini yurituvchi organlarning vakolatini noto'g'ri talqin qilish xavfini keltirib chiqaradi. Chunki tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar sud ekspertizasiga tenglashtirilmasligi lozim — sud ekspertizasi faqat maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan **sud eksperti** tomonidan, belgilangan protsessual tartibda amalga oshiriladi.

Masalan, rus olimi **Y.K. Orlov** sud ekspertizasini jinoyat protsessida isbotlash vositasi sifatida tasniflab, uni amalga oshirishning quyidagi to'rt bosqichini ajratib ko'rsatadi:

1. sud ekspertizasini tayinlash;
2. ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish;
3. ekspert tadqiqotini o'tkazish va xulosa tuzish;
4. ekspert xulosasini olgandan keyin tergovchining harakatlari. Bu yondashuvdan ko'rinadiki, ekspert faqat sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazish bosqichlarida ishtirok etadi, bu esa ekspertiza jarayonining mustaqilligini va uning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, jumladan **Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining** 272-moddasida belgilangan normalar, biz uchun muhim o‘rnak bo‘lishi mumkin. Mazkur modda asosida Qozog‘istonda himoyachi (advokat) yoki jabrlanuvchi vakiliga ham **sud ekspertizasini shartnoma asosida tayinlash huquqi** berilgan. Bu ishtirokchilarning protsessual tengligini ta‘minlab, ekspertiza jarayonining xolisligini oshiradi.

O‘zbekiston qonunchiligida esa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchining ekspertiza tayinlash va o‘tkazishdagi huquqlari aniq sanab o‘tilgan bo‘lsa-da, ularning amalda ro‘yobga chiqish mexanizmi to‘liq shakllanmagan. Jumladan, **Jinoyat-protsessual kodeksning 180-moddasida** ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining tanishib chiqish huquqi haqida aniq ko‘rsatma berilmagan. Bu esa ekspertiza tayinlanish jarayonida shaffoflik yetarli darajada ta‘minlanmayotganini anglatadi.

Shunday ekan, ekspertiza tayinlash bosqichida tergov yoki sud organi qaror nusxasini ish ishtirokchilariga majburiy tarzda taqdim etishi, ularni ekspert tanlash va savollarni shakllantirish jarayoniga jalb etishi adolat va xolislik tamoyillariga to‘liq mos bo‘ladi.

Bugungi kunda ekspertiza institutining samarali faoliyat yuritishi nafaqat jinoyat-protsessual qonunchilikni to‘g‘ri qo‘llash, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ishonchli himoya qilishning muhim kafolatidir. Shu ma’noda, ekspertiza faoliyatining takomillashuvi — huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishi,

jinoyat ishlarini xolislik bilan ko'rib chiqish hamda adolatli sud qarorlarini qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sud-ekspertizasi tizimini yanada rivojlantirish, xalqaro tajriba va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mustaqil ekspertlik institutlarini shakllantirish va kadrlar malakasini oshirish — O'zbekiston sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish yo'lidagi strategik vazifalardan biridir. Zero, adolatli sudlovni ta'minlashning asosi — dalillarni ilmiy asosda tekshirish va ishonchli ekspert xulosalariga tayanishdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (05.12.2024)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF 60-son2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3723 sonli qarori//<https://lex.uz/docs/-3735818#-3736684>
4. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V(с изменениями и дополнениями по состоянию на 02.01.2021 г.).
5. Орлов Ю.К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. Научное издание - М.: ИПК РФЦ СЭ. 2005. - 264с.

6. Зайцева Е.А. Концепция развития института судебной экспертизы в условиях состязательного уголовного судопроизводства. М.: Юрлитинформ, 2010.
7. Шейфер С.А. Система следственных действий: каковы пути ее развития // Законы России: опыт, анализ, практика. 2015.
8. Россинский С.Б. Судебная экспертиза как особый способ доказывания в досудебном производстве по уголовному делу // Сибирский юридический вестник.- 2020. - №4 (91).